



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogik, metodologik, innovatsion fan va ta'limga oid ilmiy jurnal

№1/2023

Litsenziya raqami: №095310



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI


*Elektron nashr. 218 sahifa, 30-oktyabr, 2023-yil.*

## TAHRIR HAY'ATI:

|  |  |                            |
|--|--|----------------------------|
| Qirg'izboyev Abdug'affor Karimjonovich | tarix fanlari doktori, professor   | Bosh muharrir              |
| Ibragimova Gulsanam Ne'matovna         | pedagogika fanlari doktori(DSc), professor   | Bosh muharrir o'rinnbosari |
| Hamdamova Maxzuna Tursunovna           | pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent   | Bosh muharrir o'rinnbosari |
| Jamoldinova Odinaxon Rasulovna         | pedagogika fanlari doktori, professor  | A'zo                       |
| Djamilova Nargiza Nuriddinovna         | pedagogika fanlari doktori (DSc), professor  | A'zo                       |
| Babayeva Dono Razzakovna               | pedagogika fanlari nomzodi, professor  | A'zo                       |
| Sadikova Shoista Akbarovna             | pedagogika fanlari nomzodi, professor  | A'zo                       |
| Jumanova Fotima Uralovna               | pedagogika fanlari nomzodi, dotsent  | A'zo                       |
| Shirbacheyeva Gulchexra Shakirovna     | pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent   | A'zo                       |
| Mirzayeva Farog'at Odiljonovna         | pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent   | A'zo                       |
| Bafayev Muxiddin Muxammadovich         | psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  | A'zo                       |
| Ne'matov Shuhrat yergashovich          | pedagogika fanlari nomzodi   | A'zo                       |
| Ochilov Sevin Rajaboyevich             | Qashqadaryo viloyat Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi Pedagoglarning bilimi hamda ko'nikmalarini baholash sho'basi metodisti | A'zo                       |
| Yuldasheva Dilnoza Bekmuradovna        | Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent   | A'zo                       |
| Nurkeldiyeva Dilbar Axmedovna          | pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  | A'zo                       |
| Radjapova Zuxra Tirkashevna            | pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent   | A'zo                       |
| Gaynazarova Gulbahor Abdullayevna      | pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent   | A'zo                       |

**Muassis:** “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

**Hamkorlarimiz:** Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti,  
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti



# MUNDARIJA

|  |    |
|--|----|
| "Ta'lim sifatini oshirish – Yangi O'zbekiston taraqqiyotining yakka-yu yagona to'g'ri yo'lidir" .....                      | 6  |
| Qirg'zboyev Abdug'affor Karimjonovich  |    |
| Ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni takomillashtirish mexanizmlari .....                                      | 8  |
| Ibragimova Gulsanam Ne'matovna   |    |
| Влияние игровой деятельности в процесс изучения английского языка в ДОО .....  | 11 |
| Хамдамова Махзунна Турсуновна  |    |
| Methodological advancements in the English instruction of preschoolers.....  | 15 |
| Asiljonova Shohsanam Doniyorovna   |    |
| Yangi O'zbekiston maktabgacha ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar .....                                       | 18 |
| Babayeva D. R.   |    |
| Maktabgacha yoshdag'i bolalarni iqtisodiy tarbiyalashda pedagoglar va ota-onalarning o'zaro ta'siri .....                  | 21 |
| Bozorbayeva Gulruh Alisher qizi  |    |
| Zamonaviy sharoitlarda maktabgacha ta'lim tizimida metodik ishlarni tashkil etish.....                                     | 25 |
| Fayziyeva Mabudaxon Muxammadjonovna  |    |
| Nеполные предложения как объект исследования .....   | 28 |
| Ибатова Амира Шавкатовна, Юлдашева Диляноза Бекмуродовна   |    |
| Lider va uning fazilatlari xorijlik olimlar va tadqiqotchilar nigohida .....   | 32 |
| Irgasheva Madinabonu Baxromjon qizi  |    |
| Ijtimoiy tarbiyada mahallaning o'rni.....  | 36 |
| Raximberganova Munojat Muzaffar qizi, Iskandarov Nodirbek Ravshanbekovich  |    |
| Maktabgacha yoshdag'i bolalarni ijodiy faoliyatga o'rgatishda STEAM ta'lim texnologiyasining ahamiyati .....               | 38 |
| Kojageldiyeva Aziza Muxsum qizi  |    |
| Kredit-modul tizimida mustaqil ta'limni tashkil etishning sharoit va imkoniyatlari .....                                   | 41 |
| Mirzayeva Faroxat Odiljonovna, Odiljonova Shoxsanam  |    |
| Tolerantlikning tarixiy-falsafiy va psixologik ildizlari.....  | 46 |
| Bafayev Muxiddin Muxammadovich   |    |
| Особенности занятий спортом в подростковом возрасте и<br>их влияние на школьную успеваемость учеников.....                 | 50 |
| Ризаев Азизжон Рахимджанович   |    |
| Maktabgacha ta'limga zamonaviy axborot texnologiyalari .....   | 54 |
| Marasulova Dono Nigmatullayevna  |    |
| Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyanuvchilarini ma'naviy fazilatlarini shakllantirish texnologiyalari.....            | 59 |
| Matchanov B. O.  |    |
| Maktabgacha katta yoshdag'i bolalarda hayot xavfsizligi ko'nikmalarini<br>shakllantirishning psixologik xususiyatlari..... | 63 |
| Muratova Munavar O'rol qizi  |    |
| Развитие речи дошкольников как социально-коммуникативный процесс.....  | 67 |
| Нажмиддинова Гулноза Одиловна  |    |
| Bo'lajak tarbiyachilarining mediakompetentligini oshirish mexanizmlari.....  | 70 |
| Nazarmatova Dilshoda Umarali qizi  |    |
| Методика развития речи дошкольников .....  | 74 |
| Очилова Хилола Шералиевна  |    |
| Okul öncesi dönemde bulunan çocukların için anne-babaların<br>çocuk kitapları seçim kriterlerinin incelenmesi.....         | 78 |
| Elem Göktaş  |    |
| Дидактическая игра как средство экологического образования детей дошкольника .....   | 87 |
| Равшанова Наргиза Норбоевна  |    |
| Отешова Гульнур Кабуловна  |    |

|  |     |
|--|-----|
| Оценка эффективности цифровых технологий по сравнению с традиционными методами управления качеством образования в дошкольных учреждениях.....            | 91  |
| Хайдаров Р.  |     |
| Maktabgacha katta yoshdagи bolalarda dizaynerlik qobiliyatini rivojlantirish metodikasi .....  | 95  |
| Radjapova Zuxra Tirkashevna  |     |
| Развитие коммуникативной компетентности среди будущих дошкольных учителей .....  | 100 |
| Садикова Шоиста, Тохирова Шохсанам   |     |
| Maktabgacha ta'limda yuksalish .....   | 104 |
| Shirbacheyeva Gulchehra Shakirovna, Nuraliyeva Rahbaroy Ravshanbek qizi  |     |
| Maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyachilarini kasbga yo'naltirib o'qitishda metodik tayyorligini takomillashtirish yuzasidan xalqaro tajribalar ..... | 106 |
| Sultansaidova Mushtariy Abzalxanovna   |     |
| Model of Professional Competencies Preschool Education Teacher .....   | 109 |
| Tokhirova Shokhsanam   |     |
| Maktabgacha katta yoshdagи bolalarda ijtimoiy ongni shakllantirishning metodik shart-sharoitlari .....   | 114 |
| Xo'jamatova X. M.  |     |
| Zamonaviy o'zbek oilalarda bolalarmi milliy ruhda tarbiyalashda qadriyatlarning o'rni .....  | 119 |
| Yakubova Zilola Zikirovna  |     |
| Maktabgacha yoshdagи bolalarga til o'rgatishda o'yinlardan foydalanish.....  | 122 |
| Mirkasimova Zilola Alisherovna   |     |
| Maktabgacha yoshdagи bolalarni kitob o'qishga qiziqtirishda psixologik qo'llab-quvvatlash .....  | 124 |
| Musratova Zilola Ulugbekovna   |     |
| Maktabgacha yoshdagи bolalarning shaxslararo munosabati .....  | 128 |
| Alimova Gulchehra Qobilovna, Sadikova Durdong Shohasan qizi  |     |
| Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida sahnalashtirish faoliyatini tashkil etish shakllari .....   | 132 |
| Teshabayeva Zamira Sobirovna   |     |
| Maktabgacha yoshdagи bolalarda qadriyatlar shakllanishida xavotirli holatning ahamiyati .....  | 135 |
| Maxmudova Dilorom Axmadovna  |     |
| MTT direktorlarini menejerlik faoliyatiga tayyorlash yo'naliishlari.....   | 137 |
| Nabiiev Erkin Esanovich, Xushiyeva Gavxar Mamatkarimovna   |     |
| Xorijiy tillarning psixologik xususiyatlari.....   | 140 |
| Atayev Shukur-Ali Ayub-Aliyevich   |     |
| Possibilities of Developing Social Competence in Future Educators.....   | 143 |
| Khalilova Dilnoza Furkatovna   |     |
| Bo'lajak o'qituvchilarining innovatsion kompetensiyasini rivojlantirish tamoyillari.....   | 146 |
| Jumanova Fatima Uralovna   |     |
| Talabalarning kasbiy kompetentliligin integrativ yondashuv asosida rivojlantirish texnologiyasi.....   | 149 |
| Kamalova Gavhar Akbarovna  |     |
| Til leksik sistemasining kognitiv aspekti nazariyasi.....  | 152 |
| Muzaffarova Nodira Mardonovna, Umarova Obida Avazxonovna   |     |
| Madaniyatlararo muloqot asosida bo'lajak o'qituvchilarining<br>kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning samaradorligi.....                           | 156 |
| Ne'matova G. A.  |     |
| Soha mutaxassislarining ijtimoiy psixologik bilimdonligini oshirish muammolari .....   | 160 |
| Norboyeva Dilafruz Jumakulovna   |     |
| Abdulla Oripov she'riyatida qush nomlari uslubiy vosita sifatida.....  | 163 |
| Yuldasheva Dilnoza   |     |
| Talabaning tadqiqotchilik qobiliyatini rivojlantirishda ilmiy uslubning ahamiyati.....   | 166 |
| Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna  |     |
| Raxmatova Saodat Amrakulovna   |     |
| Ona bilan munosabatning o'smir tomonidan guruhnii idrok etilishiga ta'sir xususiyatlari .....  | 172 |
| Abdullayeva Dilbar Ubaydullayevna  |     |



|  |     |
|--|-----|
| Основные аспекты передачи способностей и генетических характеристик от родителей.....        | 176 |
| Тургунов Абдурашид Абдуманнобович  |     |
| Onalik munosabati autizm sindromli bolalarni ruhiy rivojlanishining omili sifatida.....      | 182 |
| Asrarhanova E'tibor Abduvaxob qizi, Lutfullayeva Iroda Abduvaxob qizi                        |     |
| Psixik yetuklik bolaning maktab ta'limga psixologik tayyorligi ko'rsatkichi sifatida .....   | 186 |
| Jalilova Saboxat Xalilovna   |     |
| O'smirlar tasavvurida stressogen ta'sirlarning psixologik tahlili .....                      | 191 |
| Ismoilova Nurjaxon Zuxuriddinovna  |     |
| Seminar mashg'ulotlarini samarali tashkil etishning "kouching" shakli .....                  | 196 |
| Mamatkulova Kimyoxon Abdujalilovna   |     |
| Shaxs o'zini o'zi faollashtirishi tushunchasining ilmiy mohiyati.....                        | 199 |
| Qurbanboyev Azimbek Nazirboy o'g'li  |     |
| Ma'naviy taraqqiyotni ta'minlashda tarbiya texnologiyalaridan foydalanish samaradorligi..... | 202 |
| Muxsiyeva Aziza Shamsiddinovna   |     |
| Pedagoglarda frustratsion tolerantlik namoyon bo'lishining psixologik xususiyatlari.....     | 205 |
| Nurmatov Nurhayot Nurziytot o'g'li   |     |
| Kreativ yondashuv asosida talabalarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashning                   |     |
| pedagogik-psixologik xususiyatlari.....  | 209 |
| Farxodov Fozil Baxrom o'g'li, Adizova Gulzoda Mehridinovna                                   |     |
| Социальнопедагогическая компетентность воспитателя ДОО.....                                  | 212 |
| Ширбачеева Г. Ш., Тиллябаева М. Х.   |     |
| Inklyuziv ta'limgarayonida o'quvchilarni kasbga yo'naltirishning o'ziga xos qirralari.....   | 215 |
| Xusanov Samariddin Maxmadaminovich   |     |

# ДОШКОЛЬНОЕ ПРЕ-СCHOOL МАКТАБГАЧА ТОЛЕРАНТЛІКНІГІНІҢ ТАРИХИ- ФАЛАСАФИЙ ВА PSIXOLOGIK ILDIZLARI

Bafayev Muxiddin Muxammadovich

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Psixologiya kafedrası mudiri, PhD

**Annotatsiya:** Tolerantlik har bir insonning o'z maslaklariga amal qilishi va boshqalarda ham bunday huquq borligini tan olishdir. Darhaqiqat, insonlar tabiatan tashqi ko'rinishi, maqomi, fe'l-atvori va qadriyatlari bilan bir-birlaridan farq qiladilar hamda shu farqlarga qaramay yaxlit dunyoda yashash va o'z individualigini saqlab qolish huquqiga egadirlar. Fikrimizcha, tolerant (bag'rikeng) inson – o'zligini anglaydigan va o'zgalarni tushunadigan inson. Demak, farq qilish huquqini tan olish tolerantlikning asosini tashkil etadi.

**Kalit so'zlar:** shaxs, tolerantlik, shaxsiy yondashuv, fasilitativ yondashuv, ekzistensial-gumanistik yondashuv, diversifikatsion yondashuv.

**Abstract:** Tolerance is the recognition that each person is guided by their own goals and has such a right. Indeed, people are distinguished by their natural appearance, status, character and values and, despite these differences, have the right to live in a single world and maintain their individuality. In our opinion, a tolerant person is a person who understands himself and understands others. Therefore, recognition of the right to distinction is the basis of tolerance.

**Key words:** personality, tolerance, personal approach, facilitative approach, existential-humanistic approach, diversification approach.

**Аннотация:** Толерантность - это признание того, что каждый человек руководствуется своими целями и имеет такое право. Действительно, люди отличаются природным внешним видом, статусом, характером и ценностями и, несмотря на эти различия, имеют право жить в едином мире и сохранять свою индивидуальность. На наш взгляд, толерантный человек - человек, который понимает себя и понимает других. Следовательно, признание права на различие является основой толерантности.

**Ключевые слова:** личность, толерантность, личный подход, фасилитативный подход, экзистенциально-гуманистический подход, диверсификационный подход.

Ma'lumki, insoniy munosabatlar tizimining faol ishtirokchisi sifatida shaxs gavdalaniadi. Ayniqsa, ularda ijobjiy va salbiy shaxs sifatlarining shakllanishi atrofdagi insonlar va yashayotgan muhitiga bog'liq. Shu bilan birga, ularda jamoatchilik, jamoaviy faoliyatni to'g'ri tashkil qilish, o'zaro va shaxslararo munosabatlarni oqilona yo'lda qo'yishlari bilan tavsiflanadi.

Tolerantlik tushunchasi ko'p qirrali ijtimoiy-siyosiy, madaniy va huquqiy, sosiologik va psixologik adabiyotlarda keng tarqalgan zamonaviy atamalardan biridir. Tolerantlik (*lot. tolerantia – chidam, sabr-toqat*), bag'rikenglilik – o'zgalarning turmush tarzi, xulq-atvori, odatlari, his-tuyg'ulari, fikr-mulohazalari, g'oyalari va e'tiqodlariga nisbatan toqatli, chidamlili bo'lish. Bir-biriga o'xshamagan odamlarning birga ahillikda yashashga intilishidir [8]. Tolerantlik – turli emotsional ta'sirlar ostida ham odamning hissiy turg'unligini uning xulqning turg'unligida namoyon bo'ladigan holat. Qiyingchiliklarga chidamlilik, boshqa odamlar xulqiga toqatlilik [9]. Tolerantlik, bag'rikenglilik – o'zgalarning turmush tarzi, xulq-atvori, odatlari, his-tuyg'ulari, fikr-mulohazalari, g'oyalari va e'tiqodlariga nisbatan toqatli, chidamlili bo'lish. Bu bir-biriga o'xshamagan odamlarning birga ahillikda yashashidir. Biror bir

insonda yoki o'zga madaniyatda bizga nimadir yoqmasligi mumkin, biroq o'zgalarning huquq va manfaatlariga ziyon yetkazmasa, joriy qonunlarni buzmasa, ularning mavjudligi va rivojlanishini tan olishimiz kerak. Ya'ni tolerantlik bu o'zgalarning fikri, qarashlari va xatti-harakatiga passiv, tabiiy ravishda bo'yusunishni anglatmaydi. Balki alohida odamlar, turli guruuhlar, xalqlar, ijtimoiy guruuhlar o'ttasida bir-birini tushunish, ijobjiy hamkorlik yo'li-dagi faol axloqiy nuqtai nazar va psixologik hamkorlikni anglatadi. Tolerantlikni to'g'ri shakllanishi bilan faol pozitsiya va shaxsning o'zini namoyon qilish va o'zini anglashga intilishi shakllanadi.

"Tolerantlik" tushunchasi uzoq asrlar davomida shakllangan va hozirgi vaqtida ham turli ilmiy yondashuvlar bilan to'ldirib borilmoqda. Tolerantlik tushunchasi turli madaniyat va xalqning tarixiy tajribasi bilan bog'liqlikda xilma-xil ko'rinishda namoyon bo'ladi. Shu tariqa tolerantlikning "ma'nolar qutisi" muntazam ko'payib, boyib bormoqda. Jumladan, Dj. Lokk o'zining "Bardoshlilik haqida ocherk"ida (1667-y.) va "Bardoshlilik haqida xat"ida (1685-y.) cherkovning kuchli syenzurasi sharoitida bardoshlilik zarur ekanligi haqida yozadi. Insoniyat tarixida urushlar, diniy ta'qiblar va g'oyaviy qarama-qarshiliklar kelib chiqishiga sabab bo'lgan sabrsizlik, qanoatsizlik doim mavjud bo'lib kelgan. Kundalik hayotimizda bu fanatizmda, taqlidchilikda (stereotiplarda), tahqirlashlarda ifodalangan va ifodalanib kelayotgan bo'lsa, davlat miqyosida esa – irqiy kamsitish (diskriminatsiya), milliy va diniy xususiyatlari orqali ta'qiblarda hamda inson uchun muhim bo'lgan demokratik erkinliklarni buzhish kabi holatlarda namoyon bo'lmoxda. Tolerantlik g'oyasining o'zi falsafiy fikr tarixiga borib taqaladi.

J. Lokk (1632-1704-yillar)ning tadqiqotlarida tolerantlik tushunchasi qat'iy cheklangan diniy chegaralar doirasida bo'lsa ham, uni mustaqil tushuncha sifatida ifodalab berdi. Uning "Diniy sabr-toqat to'g'risida maktub" asari (1685-1686-yillar) jamiyatdagi tolerantlik sohasini shakllantirishda muhim qadam bo'ldi. Bu asarda fuqarolarga diniy ibodatlarga erkinlik berish huquqi, diniy jamoalarning teng huquqliligi, cherkovni davlatdan ajratish to'g'risidagi g'oyalar bayon etilgan. U "Ayrim kishilar o'ttasida bo'lgani kabi turli cherkovlar o'ttasida ham hamisha biron-bir huquqiy ustunlikka yo'l qo'yagan holda totuvlik, tenglik va do'stlik babbavar darajada hurmat qilinishi kerak", – deb ta'kidlaydi.

Angliyada XVII asrda ro'y bergan voqealarni o'rganish natijasida Volterning bu masaladagi fikrlari shakllandi. O'shanda diniy xilma-xillik va milliy bag'rikenglik sharoitida fuqarolar o'ttasida tinchlikka erishilgan va mehribonlik muhiti qaror topgan edi. U 1763-yilda tolerantlik to'g'risida maxsus risola e'lon qilib, unda quydagicha fikrlarni bayon etadi: "Biz barcha kishilarni o'z birodarimiz deb bilmog'imiz kerak. Turk ham, xitoy ham sening birodaringmi? deb so'rarsiz. Ha, hech shubhasiz, ular ham mening birodarlarimdir. Biz hammamiz bir otaning farzandlarimiz". Tadqiqotlar yakunida tolerantlikni umumbashariy qadriyat va yaxshi fazilat degan xulosaga keladi.

Jon Stuart Mill (1806-1873) tolerantlikni va xilma-xillikni bir-biridan ajralmas deb hisoblab, o'zining "Ozodlik to'g'risida"gi asarida xilma-xillikni "buyuk qadriyat" deb e'lon qildi.

Nazariy tahlillar Ikkinci jahon urushidan keyin tolerantlik siyosi, tafakkur va amaliy fe'l-atvorning yangi qoidalari talab qila boshlaganligini, shu tufayli inson huquqlarini xalqaro miqyosda yuridik himoya qilish, marginal, ijtimoiy guruuhlar va ayrim kishilarni davlatning zo'rvonlik tazyiqidan himoya qilish tizimini yaratish yo'lida muayyan qadamlar qo'yilganligini ko'rsatdi. Shu bois 1945 yilda BMT qabul qilgan Birlashgan Millatlar Xariyyasi asosida insonning xalqaro tan olinadigan huquqlarini yuridik tarzda mustahkamlashga kirishildi. BMT Nizomining muqaddimasida ta'kidlanishicha, "... dunyoda bir-biri bilan birga qo'shnilar kabi murosa qilib birga yashash zarur. BMT va uning qoshidagi tashkilotlar suveren davlatlar fe'l-atvorining umumiyligini legitim (qonuniy) asosi bo'lib qolishi lozim bo'lgan huquqiy muhitni shakllantira boshladilar. Shu bois tadqiqotchilar tomonidan tolerantlikning ta'rifi, eng avvalo milliy va irqiy kamsitish, tahqirlashning barcha turlarini oldini olish nuqtai nazaridan talqin qilinadi. Chunki zamonaviy jamiyatda yuz berayotgan murosasizliklar, faqatgina, irqiy, teri rangi, qondoshlilik, milliy va etnik kelib chiqish bilan bog'liq va shunga asoslanganligi yaqqol ko'rinish turibdi. Shu bilan birga tolerantlikni ancha keng ma'noda tan olinishi irqchilik bilan kurashishda yaxshi samara beradi, chunki insonning fuqarolik, siyosi va iqtisodiy huquqlari uning ijtimoiy va madaniy huquqlari bilan chambarchas bog'liq. Jumladan, tolerantlikni ancha keng ma'noda – bardoshlilik va hurmat sifatida barchaga nisbatan qo'llanilishini – ijtimoiy-madaniy soha tarafdarlari qo'llab-quvvatlashadi. Ular tolerantlikni jamiyatga ziyo tarqatish zarurati bilan odamlarda bardoshlilik va hurmatni tarbiya qilib, turli fobiyalarni (qo'rqishlarni) paydo bo'lishini oldini oluvchi ruhiy to'siqlarni yo'q qilish bilan bog'lashadi.

O'zbek tilida nashr qilingan lug'atlarda tolerantlik tushunchasining "bag'rikenglik" atamasi bilan sinonim sifatida qo'llanilish holati ko'zga tashlanadi: bag'rikenglik – o'zgalarga nisbatan mehr-muruvvatli, g'amxo'r, saxiy, keng fe'l bo'lgan ana shunday ma'naviy fazilatlarga ega kishilarni ifodalovchi tushuncha. Bag'rikenglik o'zgalarning dunyoqarashini, diniy e'tiqodi, milliy va etnik xususiyatlari, an'ana va marosimlariga hurmat-ehtiyomda bo'lishi, muomala-munosabatda, kamsitish va takhirkashlarga yo'l qo'ymaslik, insoniylikni hamma narsadan ustun hisoblab, jamoada, ish joylarida mahalla-ko'yda, bunga rioya etishni anglatadi. Mazkur tushuncha turli dindagi, turli millat va elatlarga mansub kishilarning yagona davlat tarkibida bahamjihat, tinch-osoyishta yashashni ifoda etadi. Ta'kidlash joizki, boshqa xalqlarda ham mazkur tushunchaning o'ziga xos ta'riflari mavjud<sup>[7]</sup>.

Yuqoridaagi tadqiqotchilarning manbalariga asoslanib, tolerantlikni ta'riflovchi atamalarning lug'aviy ma'nolarini jadval ko'rinishida ifodalash maqsadga muvofiq (1-jadval):

**1-jadval: Tolerantlik tushunchasiga ayrim izohlar**

| Tolerantlik    | Mazmuni  |
|----------------|--|
| O'zbek tilida  | "Tolerantlik" [lot. tolerantia – sabr-toqat, chidam, bardosh] kengroq ma'noda "Bag'rikenglik" olamdagি narsa va hodisalarni keng anglash, birovlarni bag'rikenglik bilan qabul qilish, o'zgalarga mehr va muruvvat ko'rsatish, e'zozli, izzatlari va hurmatli bo'la olish, dasturxonning har vaqt ochiqligi, mehmonnavozlik, o'zga insonlarni Yaratganning ne'mati sifatida qabul qilish, kattaga ham kichikka ham bir xilda yaxshi munosabat ko'rsata olish, atrofdagilar bilan doimiy yaxshi tavoze'li munosabat, yaxshi qo'shnichilik v.h. larni anglatadi. |
| Rus tilida     | Psixologiyada "tolerantlik" (lot. tolerantia – bag'rikenglik) – bu bag'rikenglik, kimadir yoki nimagadir yon berish, liberal, hurmat bilan munosabat va boshqa odamlarning o'ziga xosliklaridan farq qiladigan xulq-atvori, e'tiqodlari, milliy va boshqa urf-odatlari va qadriyatlarini qabul qilish (tushunish)ga munosabatdir.  |
| Ingliz tilida  | "tolerance" – Toqatlilik, chidamlilik  |
| Xitoy tilida   | "kuan rong" – Boshqalarga hurmat ko'rsatish  |
| Arab tilida    | Tasammul – kechirimli bo'lisch, yumshoqlik, mehribonlik, xayriyohlik   |
| Fransuz tilida | La tolérance – barchani borligicha qabul qilish  |
| Ispan tilida   | Tolerancia – o'zinikidan o'zgacharoq bo'lgan fikr va mulohazalarning mavjudligini tan olish  |

Mazkur tushunchalar fanlar doirasidagi ta'riflarining shakllanish holatini ham yuzaga keltirdi. Jumladan, falsafiy tadqiqotlar ushbu tushuncha dunyoqarash sifatida turli sivilizatsiyalar, madaniyatlar va konfessiyalar (diniy e'tiqodlar)ning yashashga bo'lgan huquqini tan olish, balki ularning o'zaro munosabatlari va aloqalarining umumiyl qoidalari majmui ekanligiga alohida e'tibor qaratiladi.

Sosiologik tadqiqotlarda qayd etilishicha, tolerantlikka falsafiy kategoriya sifatida qaralib, materiyaning obyektiv amal qilish shakli tarzida, ya'ni tushuncha hamda onga o'z ifodasini topishini ham e'tibordan soqit qilmaslik kerak. Tolerantlik – o'zga shaxsga yoki narsaga, yoxud begona, farqlanuvchi shaxs-hodisaga nisbatan o'z his-tuyg'ularimizni qo'lga ola bilish demakdir. Tolerantlik – o'zini o'zi cheklash orqali ifodalanadigan irodadir va bu o'zgalarga xayriyoh murosasozlik bilan qarash imkoniyatini bildiradi.

Psixologik nuqtai nazardan tolerantlik – insoniy bag'rikenglikning bir ko'rinishini yoki ifodasi bo'lib, inson uchun yoqimsiz, noxush bo'lgan biror omilga nisbatan qat'iy javobning yo'qligi yoki uning kuchsizligini bildiradi. O'sha vaziyat yoki omil qanchalik shaxsga yoqmasa-da, u bunga moslashadi.

Tolerantlik tushunchasi xorij psixologlari tomonidan keng doirada tadqiq qilingan. Xorij olimlaridan Avgustin, P. Beyl, N. A. Berdlev, F. Bekon, T. Gobbs, I. A. Ilin, I. Kant, Kastellio, J. Lokk, D. Milton, S. K. Bondareva, D. A. Leontyev, V. S. Muxina, G. U. Soldatova, A. G. Asmolov, A. V. Petrovskiy, V. Zinovyev, V. M. Zolotuxina, N. V. Kruglova, I. V. Krutova, G. V. Polatkina, A. Y. Xripkova, A. N. Basovlar tomonidan bir qator ilmiy izlanishlar olib borilgan. Ko'pgina tadqiqotlar (S. K. Bondareva, D. A. Leontyev, V. S. Muxina, G. U. Soldatova va boshqalar) tolerantlik nafaqat boshqalarning dunyoqarashini, fikrlarini tan olish, balki u insonni o'zini o'zi qabul qila bilish, uni shaxsiy hurmat qilish va tan olishdir deb talqin etadi. A. G. Asmolov "Tolerantlik" tushunchasi mazmunida uchta asosiy jihatni ajratadi: birinchi mazkur tushuncha chidamlilik, bardoshlilik bilan bog'langan, ikkinchi – sabrlilik bilan, uchinchi – ijozat, ijozat berish, rad etishga ijozat berish.

Ta'kidlash joizki, mazkur masalada to'rtinchijihat tarbiya bilan bog'liq bo'lgan, oldingi uchta jihatdan kam bo'Imagan ahamiyatga molik yangi qirrani ochishga imkon beradi va bu ham diqqat-e'tiborga loyiq jihatdir. Tolerantlik insonni o'zini o'zi anglash tizimida, "Men" qiyofasi va "boshqa kishi" qiyofasining o'zaro munosabatlari bog'lanishi kabi tushunchalarni o'zida mujassam etadi.

Zamonaviy tadqiqotlar esa tolerantlikni shaxsning kompleks sifatlari kabi jihatlari asosida talqin qiladi. Bundan tabiiy tolerantlik, muammoli tolerantlik, majburiy tolerantlik, manfaatli, g'arazli tolerantlik va tarbiya tolerantligi ajratiladi.

Tolerantlik tushunchasini falsafiy tomonidan mushohada qiluvchi V. Lektorskiy tolerantlikning to'rtta ehti-moliy tushunish usulini taklif qiladi. Birinchisi "tolerantlik befarqlik kabi", bunda ba'zi haqiqiyligi hech qachon isbotlana olmasligi mumkin bo'lgan fikrlar mavjudligi taxmin qilinadi (diniy qarashlar, turli madaniyatlarining o'ziga xos xususiyatlari, o'ziga xos etnik e'tiqodlar, maslaklar va boshqalar). Ikkinchisi, "tolerantlik o'zaro tushunishning ilojsizligi kabi" ifodalangan munosabatlarda, tushunish va murosaning imkon yo'qligi sababli boshqaga bo'lgan bardoshlilik va hurmatni chegaralab qo'yadi. "Tolerantlik ko'ngilchanlik kabi" ifodalanganda, inson ongida nufuzli deb o'rnashgan o'z madaniyatidan boshqa madaniyatlarni ancha zaif deb baholash tushuniladi: ularga chidash mumkin, lekin shu bilan bir qatorda nafratlaniladi. Va nihoyat, "tolerantlik o'z tajribasini oshirish

va tanqidiy monolog sifatida" nafaqat boshqalarning vaziyatini tushunish, balki o'zaro muloqot natijasida o'z fikrini o'zgartirishga ham imkon beradi. Muallifning qarashlarini umumlashtirgan holda zamonaviy vaziyatlarda tolerantlikka, aynan shu kabi yondashuv mosligini ta'kidlab o'tadi.

Tolerantlik turli falsafiy va psixologik yondashuvlarda keng doirada ko'rib chiqiladi. Hozirgi kun adabiyotlarida bixevidor tolerantlik insonning alohida xulq shakli sifatida ko'rindi, kognitiv tolerantlik asosida bilish va ratsional sabablarga ega yondashuvlar ustunlik qiladi. Tolerantlikka nisbatan bir qancha yondashuvlar mavjud bo'lib, o'ziga xos tarzda ifodalangan.

Shaxsiy yondashuv – tolerantlikning murakkab anatomiyasida uning psixologik asosi va bosh o'lchovi tolerantlikning shaxsiy o'lchami (qadriyatlar, shaxsiy ustanovkalar) hisoblanadi.

Fasilitativ yondashuv – shaxslararo munosabatlar jarayonida to'liq tolerantlik nafaqat shakllanadi, balki rivojlanadi ham; tolerantlikning shakllanishidaunga rivojlanish uchun yaratilgan sharoitlar yordam beradi.

Bundan tashqari ekzistensial-gumanistik yondashuv – tolerantlik qandaydir omillar harakatining mexanik natijasi hisoblanmaydi, haqiqiy tolerantlik bu shaxsning anlangan va mas'uliyatli tanlovi bo'lib, insonning boshqalar bilan o'zaro munosabat o'rnatishdagi pozitsiyasi va faolligidir. Ekzistensial-gumanistik nuqtayi nazardan to'liq, yetuk tolerantlik bu – so'zsiz anglash, tushunish va mas'uliyatlilikdir. Bunday tolerantlik avtomatizmi, ya'ni oddiy stereotipik harakatlar emas, balki qadriyat va hayotiy pozitsiya bo'lib, ularni amalga oshirish har bir aniq vaziyatda o'ziga xos ma'noga ega va tolerantlik subyektdan ushbu mazmunni anglashni talab etadi.

Tolerantlikka diversifikatsion yondashuv – tolerantlikning psixologik mazmuni, alohida bir xususiyatga tafsifnomaga olib kelishi mumkin emas, bu murakkab, ko'p aspektli va ko'p imkoniyatli fenomen bo'lib, bir nechta bazaviy o'lchamlarga ega. Ma'lumki, rus psixologlardan B. G. Ananyev o'tgan asning 60-yillarda tolerantlik atamasidan birinchi bo'lib foydalangan bo'lsa, bu fenomenning ijtimoiy psixologiyasini ilk marotaba Sankt-Peterburglik olima G. L. Bardiyer (2007) tadqiq etgan.

Aniq sharoitlarda, ya'ni ijtimoiy voqeliklar va jarayonlar (referent guruhdagi ijtimoiy hamkorlik)da tolerantlikni shaxs faoliyatida tutgan o'rni hamda uning qay tarzda namoyon bo'lishi, shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni aniqlashga qator olimlar o'z diqqatlarini qaratib kelmoqdalar.

Tolerantlik tushunchasiga turli soha mutaxassislari tomonlaridan ta'riflar keltiriladi. Jumladan, tolerantlik falsafiy ma'noda lotinchadan, chidam, chidamlilik, toqat qilish, keng fe'lilik ma'nosida qo'llanilib, falsafada bag'rikenglik, halimlik va xayrixohlik tushunchalarini ifodalaydi.

Psixologik ma'noda tolerantlik bu – individning o'zi asab va ruhiy muvozanatini tiklash muvaffaqiyatli moslashish, adovatga yo'l qo'ymaslik va uni o'rabi turgan olam bilan ijobiy munosabatlarni rivojlantirish maqsadida muammoli va inqirozli vaziyatlarda tashqi muhit bilan faol aloqa qilish qobiliyatini belgilovchi birlashma, integral xususiyat sifatida ma'no-mazmun kashf etgan.

N. M. Lebedeva o'z tadqiqotlarda tolerantlikning etnomadaniy jihatlarini o'rganib, o'z madaniyatini hurmat qilish, uning qiymati va ijobiy mazmuniqa qat'iy ishonish ham ko'proq boshqa o'z madaniyatidan farqli madaniyatlar bilan to'qnashib turishi kabi fikrlarni ilgari suradi. Shuningdek, u tolerantlikni bir xillikka va avtoritarizmga qarshi bo'lgan shaxsiy xususiyatlar kabi talqin qilinadi. U bu xususiyatni to'satdan yuzaga kelgan yangi sharoitlarga moslashishi uchun zarur bo'lgan sifat deb hisoblaydi. Tolerantlikka ega bo'lmagan, o'zgarishlarga layoqatsiz bo'lgan kishilar, o'rabi turgan atrof-muhit hodisalarini ortiqcha soddalashtiradi va qat'iyatlik ko'rsatadi.

Shunday qilib, tolerantlik tushunchasi ko'pgina manbalarda bardoshlilik tushunchasi bilan tenglashtiriladi. Tolerantlik faol, boshqalarning fikriga, dunyoqarashiga va harakatlariga notabiy ravishda bo'y sunish emas, balki faol axloqiy-ma'naviy dunyoqarash va ethnoslar orasidagi ijtimoiy guruhlar orasidagi o'zaro munosabatlarda insonni bardosh bilan sabr qilishga psixologik jihatdan tayyorligini ko'rsatib turuvchi faol pozitsiya deb xulosa qilish mumkin.

#### **Foydalilanigan manbalar:**

1. Асмолов А.Г. На пути к толерантному сознанию. – М.: Смысл, 2000. – 255 с.
2. Бардиер Г. Л. Социальная психология толерантности. Автореф. дисс. д. психол.н. – СПб.: 2007., – 45 стр.
3. Лебедева Н.М. Этническая и кросс-культурная психология: Учебник для высших учебных заведений. – М.: МАКС Пресс, 2011. – С. 61-80.
4. Оллпорт Г.В. Толерантная личность // Век толерантности. 2003. Вып. 6. С. 39-50.;
5. Psixologik atamalar ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati. – T.: Fan va texnologiya, 2019. – 339 bet.
6. Победа Н. А. Толерантность: содержательные смыслы и социологическая интерпретация // СОЦИС. Социологические исследования. 2007. № 6. С. 13-28.
7. Ruziev A.E. "Ilk o'spirin shaxsida tolerantlikni shakllantiruvchi ijtimoiy-psixologik omillar", 19.00.05-Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya (psixologiya fanlari). ps.f.b.f.d..ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. T., 2019. – 28-50-betlar.
8. Falsafa: ensiklopedik lug'at. – T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2010. – 260-261-betlar.



**Muharrir: Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

## 2023. № 1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.



# MAKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

“Maktabgacha va maktab ta’limi”  
jurnali

26.06.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan №C-5669245  
reyestr raqami tartibi bo‘yicha  
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: №095310

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga  
ilmiy maqola, reklama materiallar yuborishingiz mumkin.  
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Тел.: 93 718 40 07

**Manzilimiz: Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod  
tumani 15-mavze 19-uy**